
Farg'ona shahrida tajriba tariqasida aholini kitob o'qishga targ'ib qiluvchi «Kitobsevar shahar» loyihasi amalga oshirilmoqda

Farg'ona shahar hokimligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona viloyat bo'limi va shahar bo'linmasi, viloyat axborot-kutubxona markazi bilan hamkorlikda kitobni o'qishga chorlovchi targ'ibot ma'lumotlarni joylashtirish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Targ'ibot tadbirlari davomida aholi vakillari, ayniqsa yoshlar o'rtasida olib borilib, ularga yangi chop etilgan hamda eng sara badiiy adabiyotlar haqida qisqacha ma'lumotlar berilmoqda. Qo'l telefoni orqali skayner qilish bilan elektron kitoblarni yuklab olish qoidalari ham tushuntirib o'tilmoqda.

Tadbirlar davomida bekatlar va aholi gavjum bo'ladigan joylarda turli xil kitoblar haqidagi ma'lumotlar hamda shiorlar yozilgan tarqatma materillar berilmoqda. Bukletlar tarqatilmoqda. Kitobsevarlar ishtirokida turli xil tanlovlar o'tkazilib, g'oliblarga eng sara kitoblar sovg'a qilinmoqda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-03 10:21:53